



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA LINGVISTIK KOMPETENSIYADAN FOYDALANISHDA ONA TILI DARSLIGINING AFZALLIKLARI

Dexqonova Sevara Fahriddin qizi
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti magistranti

Yunusova Fazilat Ulug‘bek qizi
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti magistranti

ANNOTATSIYA Mazkur maqola, ona tili darsida yangi darslik asosida o‘quvchilarda og‘zaki va yozma fikrni bayon qilish, bo‘g‘in, so‘z va gapgacha munosabatni hosil qilish, ijodiylik, ijodiy fikrni to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishda qo‘llaniladigan lingvistik kompetensiyalar va ularning mohiyati to‘g‘risida misollar orqali fikr yuritadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yangi darsliklar bolalarni o‘qitishda lingvistik va nutqiy kompetensiyani to‘liq qamrab olgan. Darslikdagi mashqlar bolalarga soddaroq tunishiga yordam beradi. O‘qituvchi uchun ham qulay.

Kalit so‘zlar: Darslik, ta‘lim sifati, pedagogika, nutq, tovush, bo‘g‘in, so‘z, so‘z birikmasi, lingvistika, pedagog, innovatsiya, ta‘limiy o‘yinlar, texnologiya, yangi texnologiyalar, kompetensiya, zamonaviy o‘qituvchi, ijodiy faoliyatlar, rivojlantiruvchi o‘yinlar, ta‘limiy tarbiya, ekalogik tarbiya.

АННОТАЦИЯ В этой статье на основе нового учебника на уроке родного языка учащиеся смогут выражать свои мысли устно и письменно, формировать связи между слогами, словами и предложениями, проявлять креативность, правильно выражать творческие мысли и бегло обдумывать примеры. лингвистические компетенции, используемые при формировании и развитии их умений и их сущности. Результаты исследования показывают, что новые учебники охватывают всю лингвистическую и речевую компетентность в обучении детей. Упражнения на уроке помогают детям спать проще. Это удобно и для учителя.

Ключевые слова: Учебник, качество образования, педагогика, речь, звук, буква, слово, словосочетание, лингвистика, педагогика, инновации, образовательные игры, технологии, новые технологии, компетенции, современные преподаватели, творческая деятельность, развивающие игры, образовательное воспитание, экологическое воспитание.

ABSTRACT In this article, on the basis of the new textbook in the native language class, the students will be able to express their oral and written thoughts, form the relationship between

syllables, words and sentences, creativity, express creative thoughts correctly and fluently. He thinks through examples about the linguistic competences used in the formation and development of his skills and their essence. The results of the study show that the new textbooks cover all linguistic and speech competence in teaching children. Exercises in the lesson help children sleep easier. It is convenient for the teacher

Key words: Textbook, quality of education, pedagogy, speech, sound, letter, word, phrase, linguistics, pedagogy, innovation, educational games, technologies, new technologies, competencies, modern teachers, creative activity, educational games, educational education, environmental education

KIRISH. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu— ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq” deb ta’kidlaganlar. Darhaqiqat, yosh avlodga berilgan yaxshi tarbiya va sifatli ta’lim Vatanimizning kelajagini yorug‘ va buyuk bo‘lishini kafolatlaydi. Shu boiz o‘quv tarbiya jarayoniga xalqaro talablar asosida ishlab chiqilgan o‘quv reja, dastur va o‘quv metodik majmualar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish.

Boshlang‘ich ta’lim-ta’limning poydevori. Joriy o‘quv yilida 1-4-sinflarning o‘quvchilari yangi darsliklar bilan ta’minlanib, darslar davomida fanlardan mavzularni o‘rganish bilan bir qatorda darslikdagi rang-barang rasmlar, qiziqarli rebuslar, mantiqiy topshiriqlar hamda loyihalar bilan ishlashni o‘zlashtirmoqda.

Oxirgi yillarda boshlang‘ich sinf darsliklari qayta-qayta o‘zgarmoqda. Xo‘sh bu o‘quvchilar bilim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydimi? Yoki o‘qituvchilarning ijodiy yondashuvlari, qobilyatlari yetarli? Bu borada ko‘pgina ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Oldin ham ona tili darslari osondan-qiyinga, soddadan- murakkabga qaratilgan edi. Faqatgina darslikdagi hikoyalar, ona tilida berilgan mashqlar ma’no jihatdan o‘zgartirilgan. Chunki hozrgi jadal rivojlanib borayotgan bir davrda, bolalar ham juda aqlli bo‘lib borishmoqda va o‘qituvchi ya’ni ustoz ulardanda aqlli bo‘lishi joizdir.

Ona tilini o‘rganish jarayonida o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakillantirish masalasini hal qilishga maktabda ona tilini o‘rgatishga asos bo‘ladigan material alohida qimmatga ega. 1-sinf ona tili darsligining boshidan bo‘g‘in va bo‘g‘in ko‘chirish haqida ma’lumot berib o‘tilgan. 1-sinfda o‘quv yilining birinchi yarmida og‘zaki va yozma tarzda bo‘g‘inlarga bo‘lish, shuningdek, o‘qituvchi topshirig‘iga ko‘ra, muayyan bo‘g‘inli so‘z tanlash mashqlari har darsda o‘tkaziladi. So‘zni bo‘g‘inlarga to‘g‘ri va tez bo‘lish ko‘nikmasini hosil qilish 1-sinfda o‘tkaziladigan muhim mashqlar qatoriga kiradi. o‘quvchilar o‘qish va yozish jarayonini egallashda mana shu ko‘nikmaga tayanadilar. o‘zbek grafikasida bo‘g‘in tamoyili yetakchi tamoyil hisoblanadi. o‘quvchi so‘zni to‘g‘ri yozish uchun uni avval bo‘g‘inlarga bo‘ladi. Bo‘g‘inlardagi tovushlarning o‘zaro bir-biriga ta’sirini aniqlaydi, undosh va unli

tovushlarni ifodalash uchun zarur harflardan foydalanadi. o‘quvchi quyidagicha muhokama yuritadi:

“Mehnat” so‘zida ikki bo‘g‘in bor. Birinchi bo‘g‘inga *meh*; ya‘ni *m, e, h* harflarini yozaman, ikkinchi bo‘g‘inga *nat*: ya‘ni *n, a, t* harflarini yozaman. o‘quvchi so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lish, bo‘g‘indagi har bir tovushning o‘rnini, tartibini aniq ko‘z oldiga keltirib, bo‘g‘inlab aytish ko‘nikmasiga ega bo‘lsa, so‘zdagi harflarni tushirib qoldirmay, o‘rnini almashtirmay yoza oladi. Shuning uchun bo‘g‘in ustida ishlashga so‘zni bo‘g‘inlab ko‘chirib yozish, bo‘g‘inlab diktovka bilan yozish (bo‘g‘inlab izohlab yozish) mashqlarini ham kiritish loziin. Ikkinchidan, so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lish ko‘nikmasi o‘quvchilar uchun so‘zning oldingi qatorga sig‘may qolgan qismini keyingi qatorga bo‘g‘inlab to‘g‘ri ko‘chirish uchun zarur. O‘quvchilar „So‘zlar bir yo‘ldan ikkinchi yo‘lga bo‘g‘inlab ko‘chiriladi“ va „Bir harfdan iborat bo‘g‘inni oldingi yo‘lda qoldirib yoki keyingi yo‘lga ko‘chirib bo‘lmaydi“ degan asosiy bo‘g‘in ko‘chirish qoidalarini I sinfdayoq o‘rganadilar.

Ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarning oldingi satrga sig‘may qolgan qismi keyingi satrga bo‘g‘inlab ko‘chiriladi: Masalan: To‘-garak, to‘ga-rak. Sa-yohat, sayo-hat...

So‘z boshidagi bir harfdan iborat bo‘g‘in yolg‘iz o‘zi oldingi satrda qoldirilmaydi:

Masalan: eshik, elak, Ota-bek, ona-jon, opa, aka...

So‘zlarda ketma-ket kelgan bir xil undosh harflar bo‘g‘in ko‘chirilganda bir-biridan ajratib yoziladi: kat-ta, mal-la, musaf-fo, yak-ka, to‘q-qiz...

Yana keyingi sinflarda ham bo‘g‘in albatta o‘tiladi. Faqat anchagina chuqurlashtirilib o‘tiladi. Mashqlarning ham qiyinlik darajasi ortib boradi. Ya‘ni soddadan – murakkabga qarab yuritiladi. Shu o‘rinda ochiq hamda yopiq bo‘g‘in haqida ham tushuncha berib o‘tiladi.

Ochiq bo‘g‘in- unli tovush bilan tugagan bo‘g‘in ochiq bo‘g‘in deyiladi. Bolajonlarga misollar orqali tushuntiriladi: g‘a-la-ba, pi-yo-la, ma-sa-la.

Yopiq bo‘g‘in- undosh tovush bilan tugagan bo‘g‘in: mak-tab, ov-qat, sak-kiz.

Shu tariqa bo‘g‘in turlari haqida ma‘lumot berib borilgan. Bu bilan 1-2-3-4- sinflarda ham shunga o‘xshash ma‘lumotlar berilgan. Shunday qoidalar har takrorlash darslarida qo‘llaniladi.

Yuqoridagi mulohazalar aynan lingvistik kompetensiya asosida o‘rgatiladi. Lingvistik kompetensiya o‘zi nima? Lingvistik kompetensiya – boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘zbek tilida nutq tovushlarini to‘g‘ri qo‘llay oladi. Talaffuz miyyorlariga rioya qila oladi. Bo‘g‘in ko‘chirish qoidalariga rioya qila oladi. Yonma- yon kelgan undosh tovushlarni bir satrdan boshqasiga ko‘chirish qoidasini, bo‘g‘in qoidasini, bo‘g‘in turlarini farqlaydi. Tinish belgilarini qo‘llay oladi.

Aynan mana shu vazifalarni dars davomida o‘qituvchi ko‘nikma sifatida berib boradi. Haqiqatdan ham o‘qituvchi yetkazib bera oladimi? Hozirgi zamon o‘qituvchisi qanday bo‘lishi kerak? Zamonaviy o‘qituvchi o‘zining bilim, ko‘nikma va malakalarini amaliyotda, ya‘ni ta‘lim-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etishda samarali qo‘llay olishi - kasbiy kompetentligining eng asosiy komponentidir. Jumladan, – dunyo hamda mamlakatda ta‘lim taraqqiyoti

bosqichlarini bilishi, xalq ta’limi tizimida o‘quv-tarbiya jarayoni mazmunini ta’minlashga, uzviylik va uzluksizligiga amal qilish, kompyuter, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va pedagogik faoliyatida qo‘llay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lish; – o‘quvchilarning ruhiy, jismoniy rivojlanishi va yosh hususiyatlari qonuniyatlarini bilishi, ta’lim-tarbiyada pedagogik-psixologik yondashuvga asoslanish; – o‘quv-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etishda darsning aniq bosqichi uchun samarali tashkil etuvchi shaxs. - O‘qituvchilar umumta’lim fanlarini o‘qitish darsining mazmuniga mediamadaniyat va mediavaxfsizlik tushunchalarini singdirib borishi, ularga axborot texnologiyalarining cheksiz ijobiy imkoniyatlari, afzalliklari bilan bir qatorda salbiy ta’siri va oqibatlaridan o‘zini himoyalash yo‘llarini ham o‘rgatish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida haqli ravishda ta’kidlaganidek, “ agarki dunyo imoratlari ichida eng ulug‘i maktab bo‘lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi o‘qituvchilik va murabbiylikdir, desak, o‘ylaymanki, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz”. Darhaqiqat, o‘qituvchi, jamiki sinf xonasiga fayz va ziyo olib kiradigan, balki ming-minglab murg‘ak qalblarga ezgulik yog‘dusini baxsh etadigan mo‘tabar zotdir.

Zamonaviylik uning majburiy sifati, bilimiga qanday talab bo‘lsa, unga ham shunchalik qat’iy talab bo‘ladi. Ya’ni bilimini bu zamonga muvofiqlashtirib borilmasa, nafi va dolzarbligi kamayib boradi. Demak, keng dunyoqarash, hur fikrlash va zamonaviylik – o‘qituvchining majburiy kasb talabi. Darsliklarda keladigan mashqlar bugungi hayot bilan hamohang bo‘lib, fanlar bilan hayot bilan integratsiyalashgan. 2- sinf ona tili darsligida har bir bo‘lim oldidan yondosh mavzu berilgan. Masalan: Qizil kitob. Ona tabiatni asraylik mavzusi berilgan o‘qituvchi tabiat hamda tarix bilan bog‘lab ma’naviyat daqiqasi qilib darsga kirib keladi. Qizil kitob haqida ma’lumot beradi.

Bugungi kunda dunyoni «Qizil kitob»siz tasavvur etish qiyin. Yuzlab turlar yo‘qolib ketayotgan bir vaqtda «Qizil kitob»ning qadri juda bilinishi muqarrar. Garchi inson faktorining tabiatga ta’siri tobora ortib borayotgan bo‘lsa-da, «Qizil kitob» hayvonot va nabotot turlarini saqlashda katta o‘rin tutishini ham inkor etmaslik lozim. Xo‘sh, bu kitob qanday dunyo yuzini ko‘rgan edi? 1948 yilda uncha katta bo‘lmagan Fontenblo shahrida (Parij yaqinida) o‘tkazilgan xalqaro konferensiyada tabiatni va tabiiy resurslarni asrash xalqaro ittifoqi (TRAI) tashkil etildi. TRAI oldiga qo‘yilgan asosiy vazifalardan biri yo‘qolib ketish arafasida bo‘lgan, inson yordamiga muhtoj va qutqarib qolish choralarini ko‘rish shart bo‘lgan o‘simlik va hayvonot turini aniqlash bo‘lgan. Shu maqsadda 1949 yilda doimiy qutqarish qo‘mitasi xizmati tashkil etildi. Bu malumotlarni qisqacha 2-3 daqiqa davomida berib o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘qituvchi darslikda berilgan mashqlarni shu tartibda bajartirsa o‘quvchilarning dunyoqarashi, hamda dunyoviy bilimlari ortadi. Ona tili darslari oldingi darsliklarda ko‘proq yozishga, mashqlarning mazmuni faqat yozma nutqqa qaratilgan edi. Lekin hozirgi yangi darsliklar yozma nutq bilan birgalikda fikrlashga yangiliklarni egallashga ham qaratilgan. Aynan shu mashqni tahlil orqali bajaramiz.

SO‘Z - nimanidir anglatish, ko‘rsatish, ifodalash uchun xizmat qiladigan eng kichik nutq birligi. O‘z tovush qobig‘iga ega bo‘lgan, narsa-hodisalar, jarayonlar, shaxslar, belgi va miqdorlarni, xususiyatlarni, harakat va holatni, aloqa va munosabatlarni nomlash uchun xizmat qiladigan, mustaqil lug‘aviy ma‘noga ega bo‘lgan, shuningdek, turli grammatik ma‘no va vazifalarda qo‘llanadigan eng muhim til birligi; gapning qurilish materiali.

Darslikda berilgan mashqlar ham qizil kitob va tabiat bilan bog‘liq bo‘lib, mashq shartlari quyidagicha bo‘ladi. Mavzuni o‘qing, Narsalarning nomini bildirgan so‘zlarni topib yozing.

Narsa nomi: nima? O‘simlik, kitob, jonzot.

Narsalar nomi - nimalar?

Jonzotlar, kitoblar, hayvonlar

3- sinf ona tili darsligida “ Tabiat” so‘zida sinkveyn tuzing degan mashq bor bunda:

1.Nima? Tabiat

2. Qanday? Go‘zal

3. Nima qiladi? Yashnaydi

4. Gap. Tabiat bebaho ne‘mat.

5. Ma‘nodosh so‘z toping. Atrof, borliq, olam, dunyo.

Mashq shu tariqa bajariladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, darslikdagi har bir mashq o‘quvchilarni fikrlashga, dunyoqarashini kengaytirishga undaydi. Mavzu ham hayot bilan bog‘lanadi. Yuqoridagi ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, lingvistik kompetensiya o‘quvchilarda tilning grammatikaga oid bilimlarini rivojlantirish va o‘zbek tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda o‘quvchilar o‘z fikrlarini to‘g‘ri, izchil, ravon va ma‘noli, shu bilan birga tinglovchiga tushunarli tarzda bayon etishini shakllantirishdan iborat. Hamda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish uchun xizmat qilsa, o‘quvchilar uchun esa maktabda olgan bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi.

NATIJARLAR va MULOHAZA. Shunday qilib, grammatik tushunchani o‘zlashtirishga yordam beradigan asosiy metodik shartlar o‘quvchilarning aqliy faoliyatini faollashtirish, ularni yangi bilim olish uchun qiziqtirish, o‘quvchilarning nutqiy tajribasiga tayanish, bilimlarning tizimliliigi, o‘quvchilarda til birliklariga lingvistik munosabatni shakllantirish ustida maqsadga muvofiq ishlash hisoblanadi. Mashqlar tizimi tushunchani o‘zlashtirish bosqichiga va uning xususiyatiga mos ravishda mashq turini tanlash, uning murakkablasha borishini va o‘quvchilar mustaqilligi o‘sib borishini hisobga olgan holda mashqlarni bajarish izchilligini aniqlashni ko‘zda tutadi. Bu tizim mashqlarning o‘zaro bog‘lanishiga asoslangan.

Mashq turlari. Grammatik mashqlar turli asosga ko‘ra tasnif qilinadi, shuning uchun mashqning har xil turi hosil bo‘ladi. Agar bilimni shakllantirish xarakteriga asoslanilsa, grammatik mashqlar ikki katta guruhga bo‘linadi: Marfalogik hamda sintaksis. Boshlang‘ich sinflarda sof morfologik yoki sof sintaktik mashq juda kam ko‘llaniladi, shuning uchun ham vazifaning yetakchi tomoni hisobga olinadi. Masalan, matnga mazmunga mos otni qo‘yish, qaysi kelishik ekanini ko‘rsatish talab etilsa, bu leksik-morfologik mashqdir. O‘quvchi otning

qaysi kelishikda ekanini aniqlash uchun u bog‘langan so‘z (fe‘l yoki ot)ni aniqlashi (so‘z birikmasini ajratishi) talab etiladi, shunga ko‘ra bu mashq sintaktik mashq hisoblanadi.

Grammatik tahlil analitik mashqqa kiradi. Grammatik tahlil so‘z turkumiga ko‘ra (morfologik) tahlilni, gap bo‘laklariga ko‘ra (sintaktik) tahlilni o‘z ichiga oladi. Gap bo‘laklariga ko‘ra tahlil o‘quvchilar o‘zlashtirgan sintaktik bilimlarning me‘yoriga qarab chuqurlashib boradi. So‘z turkumiga ko‘ra tahlil og‘zaki va yozma tarzda o‘tkaziladi: uni mustaqil mashq sifatida topshirish ham mumkin. To‘liq bo‘lmagan morfologik tahlildan xilma-xil grammatik vazifalarni bajarish maqsadida yangi mavzu bilan tanishtirish bosqichida ham, uni mustahkamlash bosqichida ham foydalaniladi.

Morfologik tahlilning vazifasi hozirgi o‘zbek tilida so‘z qanday ma‘noli qismlardan tuzilganini aniqlashdir. Morfologik tahlil 3-sinfdan boshlanadi. Bu sinfda o‘quvchilarga o‘zakdosh so‘zlar, o‘zak o‘zakdosh so‘zlarning umumiy qismi ekani, so‘z yasovchi qo‘shimchalar va so‘z o‘zgartuvchi (shakl yasovchi) qo‘shimchalar haqida elementar ma‘lumot beriladi. Shu o‘rinda mashqlardan namuna keltirsam:

1. “ Qizil kitob” so‘z birikmasi tahlili :

qi-zil - 2 ta bo‘g‘in

5 ta tovush, 5 ta harf

Unlilar : i , i

Undoshlar: q, z, l

ki-tob - 2 ta bo‘g‘in

5 ta tovush, 5 ta harf

Unlilar : i , o

Undoshlar : k , t , b

2) Berilgan so‘zlarning keyingi bo‘g‘inini shunday almashtiringki, natijada yangi so‘z hosil bo‘lsin.

Qaymoq, musiqa, kapgir, maydon, kampir, qalqon, qopqon, Javon, taroq.

Namuna: Qay-noq – qay-moq

3) Nuqtalar o‘rniga bitta harf qo‘shib, yangi so‘zlar hosil qiling.

Anjir – ...anjir , don – don..., baho – baho..., bol – bol..., anor – an...or, unar – ...unar, tog‘ – tog‘..., qish – ...qish

Foydalanish uchun harflar: z, q, a, h, r, o‘.

4. Aralash berilgan so‘zlarni o‘qing va ulardan gaplar tuzing. Bosh bo‘laklarni aniqlang va tagiga chizing.

1) O‘qidilar, bolalar, maktabda.

2) rasm, Murod, chizadi, chiroyli.

3) tushishni, raqsga, yoqtiradi, Asila.

4) doim, o‘ynaydilar, Malika, birga, Dilshoda.

5. Bugun dugonam Malika mehmonga keladi. Ushbu gapning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarini aniqlang.

Agar o‘qituvchi ta’limiy o‘yinlarni o‘ylab qiziqarli qilib o‘tkazsa bolada «hayratlanish» tuyg‘usi uyg‘onadi, ta’lim-tarbiyaning ana shu jarayoni o‘quvchilarning yodidan chiqmaydi va o‘yindan ko‘zda tutilgan maqsad shakllana boradi. O‘yinlar ikki xil ahamiyatga ega bo‘lib, ular ta’limiy va tarbiyaviydir. Darslikdagi shu mashqlardan rashqari o‘qituvchi o‘yin metodidan ham foydalanishi mumkin masalan:

Quyoshni kuldiring metodi. Bunda o‘qituvchi mohirlik bilan quyosh rasmini shunday chizadi tepadan qarasa quyuoq g‘azablangan ko‘rinadi. O‘qituvchi mana bolajonlar, quyoshimiz xafa biz sizlar bilan quyoshni kuldirishimiz kerak deydi. Buning uchun sizning yordamingiz kerak bo‘ladi. Sharti men tezkor savollar beraman siz ham tezkor javob berishingiz kerak bo‘ladi. Agar siz hamma savolimga javob bersangiz quyosh kuladi deydi.

- 1- savol. Ot qanday so‘roqlarga javob bo‘ladi?
- 2- savol. Bosh bo‘laklarga nimalar kiradi?
- 3- savol. Ikkinchi darajali bo‘lak gapda qanday vazifani bajaradi?
- 4- savol. Gapning oxirida qanday tinish belgilari qo‘yiladi.
- 5- savol. Mevazor so‘zining asosi nima?
- 6- savol. Bekorchi so‘zining ma‘nodoshi nima?
- 7-savol. Topishmoq. Olamda-yu odamda bitta, odoblida ikkita.
- 8- savol. Kuchli his hayajonni bildirgan gap qanday gap deyiladi?
- 9- savol. Fe‘l qanday so‘roqlarga javob bo‘ladi?
- 10- savol. Tartib bilan berilgan harflar nima deyiladi?

Mana shu savollarga o‘quvchilar javob berishadi. Ular to‘g‘ri javob berganlaridan keyin o‘qituvchi quyoshni teskari qiladi va quyosh kulganga o‘xshab qoladi. Men buni o‘z sinfimda sinab ko‘rganman. Bundan o‘quvchilar xursand bo‘lishadi. So‘z turkumlarini o‘tayotganimizda ham turli tarqatmaqardan foydalanishimiz mumkin. Bunda momaqaymoq metodidan foydalanishimiz mumkin.

Mantiqiy savollar. 3- sinf ona tili darslarida shunday savollar berishimiz kerakki mantiqiy bo‘lsin lekin javobini daftarga shartlar orqali yozishi mumkin bo‘lsin.

Masalan: - Bo‘g‘irsoqni yeb qo‘ygan hayvonga ta’rif bering. (ayyor tulki)

- Qovunning ukasi qaysi faslda pishadi? (handalak, yoz)
- Nimaning ikkita tomoni to‘rtta uchi bor? (yostiq)
- Nuqta eng kichik birlikmi? Yoki tinish belgisimi?
- Ikki so‘z birikishidan hosil bo‘lgan, qishda kiyiladigan narsaning nomi? (qo‘lqop)

Boshlang‘ich ta’lim ona tili darslarida mana shunday ta’limiy metod hamda o‘yinlardan foydalansak, ta’lim sifatini ancha oshirgan bo‘lar edik. Albatta bu mashqlarni bajargan o‘quvchilarni rag‘batlantirib, baholab, ularga ma’naviy motivatsiya bersak, bolalarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishlari yana ham ortgan bo‘lar, natijalar yaxshi bo‘lar edi.

She’riy mashq. Ayrim hollarda boshlang‘ich sinf ona tili darslarida she’riy mashqlar ham kelib turadi. Ko‘pchilik boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari qofiyasini toptiradilar yoki shunchaki husnixat bilan ko‘chirtirib qo‘ya qolishadi. Lekin she’r orqali ham turli mashqlarni

chuqurlashtirib o‘tsak bo‘ladi. Quyida berilgan she‘rni mashq tariqasida bajaramiz. She‘rdagi misra degani uning har bir qatoridir. . O‘quvchilar qatorlarini sanab, harflar bilan nechta ekanini yozishadi. So‘z turkumlariga oid so‘zlarni topib yozishadi. Yoki ko‘chirib bo‘lgandan so‘ng tagiga tegishli belgilang degan topshiriq berishimiz ham mumkin.

Quyidagi savollar orqali mashqni qiziqarli bajarishimiz mumkin.

She‘rdagi qofiyadosh so‘zlarni toping.

She‘rning muallifi kim?

She‘rda nechta misra bor?

She‘rdagi tinish belgilarni toping.

She‘rdagi ma‘nodosh so‘zlarni toping...

Xulosa va tavsiyalar. Xulosa qilib aytganda, lingvistik kompetensiya o‘quvchilarda tilning grammatikaga oid bilimlarini rivojlantirish va o‘zbek tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda o‘quvchilar o‘z fikrlarini to‘g‘ri, izchil, ravon va ma‘noli, shu bilan birga tinglovchiga tushunarli tarzda bayon etishini shakllantirishdan iborat. Hamda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish uchun xizmat qilsa, o‘quvchilar uchun esa maktabda olgan bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi.

O‘quvchilar bilan olib borilgan dars jarayonida bunday usullardan biri o‘qituvchining namuna ko‘rsatishi, til materiallarini kuzatish va undan andoza olish, bosqichma bosqich ishlash usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. 1-2-3-4- sinf ona tili darslarida lingvistik kompetensiyalar bosqichma – bosqich o‘rgatilib borilmoqda. Har bir sinfda tovush, harf, bo‘g‘in, so‘z, so‘z birikmasi va gap munosabatlari bosqichli yo‘lga qo‘yilgan. Masalan, 1-sinfda tovush va harf bo‘g‘in, bo‘limiga oid juda ko‘p mashqlar berilgan va shular asosida topshiriqlar tuzilib, o‘quvchida nazariy tushunchalar singdirib borilgan. Buni ona tili darsliklaridagi fonetik, leksik, orfografik, morfemik, morfologik va sintaktik tushunchalarni o‘rgatishda turli xil kreativ kriterik va loyiha ishlari asosida berilgan topshiriqlarni o‘rgatish asnosida o‘quvchida lingvistik kompetensiyalarni o‘rgatishini kuzatishimiz mumkin. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida lingvistik kompetensiya albatta muhim. Hamda darsliklar o‘zgarib borgani bilan ona tili fanida beriladigan kompetensiyalar o‘zgargani yo‘q. . Bolalar o‘sib ulg‘aygani sari ehtiyozlari ham ortib boradi. Kishilar orasida muloqat jarayonlari yuzaga keladi. Aynan shunday paytlarda o‘rganilgan bilimlari yordamga keladi. So‘zlarning ulanishi, qo‘shimchalarning to‘g‘riligi, nutqning ravonligi muhim sanaladi. Maktabda o‘qituvchilar aynan shu ko‘nikmalarni o‘quvchilarda shakllantirishlari zarur. Hozirgi darsliklar lingvestik kompetensiyani o‘rgatishda eng yaxshi darslik deb hisoblayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga ko‘ramiz. T.: “O‘zbekiston” 2017.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-son farmoni.

3. Milliy o‘quv dasturi.

4. U.B. Aydarova va Yuldasheva Dildar Shuhratovna 1-sinf ona tili darslik kitobi 5.

S.D. Kuranovning 2-sinf ona tili darslik kitobi

6. D. Boynazarovning 3-sinf ona tili darslik kitobi

7. I. Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, 2008-yil.

8. 2024-yil Mukarram Axmedova “Pedagogik kompetentlik”, Toshkent, 2018-yil

9. www.xabar.uz